MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	



MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B TAQSIMOTIDA CHAKANA SAVDO TARMOQLARI BILAN MARKETING ASOSIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK

Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi

TDIU, Marketing kafedrası tayanch doktoranti

e-mail: ruzievafarzona@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda maishiy kimyo mahsulotlari sohasida B2B taqsimot tizimi va chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosida strategik hamkorlikning roli o'rganildi. SWOT va Porter modellariга tayanib, raqamli transformatsiya, omnichannel yondashuvlar va sodiqlik strategiyalarining samaradorlikka ta'siri tahlil qilindi. Tahlillar asosida marketing va taqsimot o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, raqamli platformalardan foydalangan holda brend sodiqligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: B2B marketing, taqsimot strategiyasi, omnichannel, chakana savdo, raqamli transformatsiya, SWOT, Porter modeli, brend sodiqligi.

Abstract: This study examines the role of strategic cooperation between household chemical manufacturers and retail networks in B2B distribution through a marketing-based approach. Using SWOT and Porter's models, the research analyzes how digital transformation, omnichannel strategies, and loyalty programs influence distribution effectiveness. Based on the findings, practical recommendations are proposed to strengthen the integration of marketing and logistics and to enhance brand loyalty through digital platforms.

Key words: B2B marketing, distribution strategy, omnichannel, retail trade, digital transformation, SWOT, Porter model, brand loyalty.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается роль стратегического сотрудничества между производителями бытовой химии и розничными торговыми сетями в контексте B2B-распределения на основе маркетингового подхода. С опорой на модели SWOT и Портера проанализировано влияние цифровой трансформации, омниканальных стратегий и программ лояльности на эффективность распределения. На основе анализа разработаны практические рекомендации по усилению интеграции маркетинга и логистики, а также повышению приверженности бренду с использованием цифровых платформ.

Ключевые слова: B2B маркетинг, стратегия распределения, омниканальность, розничная торговля, цифровая трансформация, SWOT, модель Портера, лояльность бренду.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida ishlab chiqaruvchilar va chakana savdo tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarning shakli tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, maishiy kimyo mahsulotlari sektorida raqobat kuchayib borayotgani, xaridor xatti-harakatlarining o'zgarishi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ushbu o'zgarishlarni yanada tezlashtirmoqda. Shu sharoitda B2B taqsimot tizimini marketing asosida qayta ko'rib chiqish va chakana savdo bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash dolzarb zaruratga aylangan.

Taqsimot faqat mahsulot yetkazib berish emas, balki brend qadriyatlarini shakllantirish, xaridor bilan bevosita aloqa o'rnatish va bozorda ishonchli pozitsiyani egallash vositasiga aylanmoqda. Ayniqsa, sodiqlik dasturlari, birgalikdagi promosiya kampaniyalari va mijoz axborotlarini tahlil qilish orqali ishlab chiqaruvchi va chakana savdo o'rtasidagi integratsiya yangicha bosqichga ko'tarilmoqda. Bu esa marketing strategiyalarini yanada samarali, moslashuvchan va foydali qiladi.

Bundan tashqari, omnichannel savdo modellaring joriy etilishi va raqamli platformalarga o'tish B2B hamkorlikning yangi shakllarini shakllantirmoqda. Kompaniyalar bir vaqtning o'zida onlayn va oflayn kanallarda



faoliyat yuritib, xaridorga izchil tajriba taqdim etishga intilmoqda. Bunday yondashuv bozor talablariga moslashuvchanlikni oshiradi, marketing va taqsimot o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi va raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Ushbu mavzuni o'rganish amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, marketing nazariyalarini ishlab chiqarish va taqsimot tizimlariga tatbiq etish orqali korxonalarga real yechimlar taqdim etadi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun strategik qarorlar qabul qilishda, chakana savdo bilan barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yishda va bozorda raqobatbardosh pozitsiyani mustahkamlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maishiy kimyo mahsulotlarining B2B taqsimotida marketing asosidagi yondashuvlar va chakana savdo tarmoqlari bilan hamkorlik masalasi so'nggi yillarda alohida ilmiy va amaliy e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar tahlili quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirildi: marketing nazariyalari, taqsimot strategiyalari, omnichannel integratsiyasi va raqamli transformatsiya.

B2B muhitda marketing yondashuvlari asosan tashkilotlararo munosabatlar, qadriyat zanjiri va mijoz bilan uzoq muddatli aloqani shakllantirishga asoslanadi. Hutt va Speh [16] B2B marketingni mijozga yo'naltirilgan strategik boshqaruv sifatida talqin qiladi, bunda distribyutsiya samaradorligi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi. Kotler va Keller [2] esa taqsimotni nafaqat logistika, balki marketing funksiyalarining uzviy qismi deb hisoblab, ishlab chiqaruvchi va sotuv nuqtasi o'rtasidagi aloqalarni brend siyosati bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Tamillia [8] taqsimot kanallarining tarixiy shakllanishi orqali zamonaviy distribyutsiya strategiyalarining negizini ochib beradi. Ayniqsa, Palmatier va hamkorlari [3] tomonidan ishlab chiqilgan omnichannel modelda savdo kanallarining turli shakllarini yagona tizimga birlashtirish g'oyasi ilgari suriladi.

Raqobat kuchlarini tahlil qilishda Porterning Besh kuch modeli asosiy nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Verhoef [4] va Ailawadi [6] ko'rsatganidek, B2B segmentda ichki raqobat darajasi yuqori bo'lib, mahsulotni narx asosida sotishga intilish uzoq muddatli barqarorlikni zaiflashtiradi. Yrjölä [5] esa omnichannel strategiyalar orqali raqobatni marketing yondashuvi bilan muvozanatlashtirish zarurligini asoslaydi.

Farnalskiy [21] tomonidan o'rganilgan Ukraina bozoridagi real taqsimot modeli raqobat kuchlariga qarshi qanday amaliy chora-tadbirlar ko'rish mumkinligini amaliy misolda ko'rsatadi. Bu misol metodologik tahlillarni real holatlar bilan bog'lashda muhim manba hisoblanadi.

Raqamli vositalar taqsimot tizimlarini samaraliroq boshqarish imkonini beradi. Li va hamkorlari [9] omnichannel strategiyada raqamli axborot konvergentsiyasining ahamiyatini yoritadi, ya'ni CRM, ERP va boshqa tizimlar orqali barcha kanal faoliyatlarini birlashtirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Dai va Kauffman [18] tomonidan taqdim etilgan e-procurement modellari esa xarid jarayonini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Krhač Andrašec [10] o'z tadqiqotida kimyo sanoatida raqamli savdo kanali joriy etilishi tajribasini tahlil qilib, B2B sektorida mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri raqamli muloqotning qanday ustunliklar berishini asoslab bergan.

B2B marketingda faqat tranzaksion yondashuv emas, balki barqarorlik va brend sodiqligiga asoslangan strategiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Sheth va Sinha [17] B2B brendingda ekologik barqarorlik va ishonchlilik mezonlarini ilgari suradi. Rudawska [19] esa B2B va B2C segmentlari o'rtasida barqaror marketing strategiyalarini solishtirgan holda, chakana savdo bilan hamkorlikda ekologik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Mariadoss [20] tomonidan ilgari surilgan marketing salohiyati modeli B2B kompaniyalarning ichki imkoniyatlarini samarali resurslar orqali strategik ustunlikka aylantirish yo'llarini taklif etadi. Bu yondashuv Galp va Amazon tajribasi bilan to'la mos keladi [12], [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda maishiy kimyo mahsulotlari sektorida B2B taqsimot tizimi va chakana savdo bilan strategik hamkorlikni baholash uchun tavsiflovchi va tahliliy usullar qo'llanildi. Deduktiv yondashuv asosida nazariy model va real amaliyot o'zaro solishtirildi.

Ichki va tashqi omillar SWOT tahlili orqali, raqobat kuchlari esa Porter modeli yordamida aniqlandi. Ma'lumotlar ilgari o'rganilgan korporativ tajribalar (Galp, Amazon, Planmeca) hamda so'nggi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Raqamli transformatsiya va omnichannel yondashuvni baholashda Li, Dai va Krhach tadqiqotlaridagi konseptual modellardan foydalanildi. Tahlillar marketing strategiyasi, distribyutsiya samaradorligi va raqamli integratsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirildi. Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari marketing asosidagi B2B taqsimot tizimining maishiy kimyo mahsulotlari sektorida qanday ishlashini chuqur o'rganishga qaratildi. Ushbu bo'limda strategik hamkorlik, taqsimotdagi raqobat sharoitlari, raqamli transformatsiya darajasi, hamda omnichannel yondashuvlarning amaliy ahamiyati alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida zamonaviy marketing va logistika nazariyalariga asoslangan ko'p bosqichli baholash yondashuvi qo'llanilgan bo'lib, olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maishiy kimyo mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun taqsimot tizimi – nafaqat mahsulotlarni bozorlarga yetkazish vositasi, balki brend identifikatsiyasi va marketing strategiyalarining amalda ifodalanishidir. Hozirgi kunda kuzatilayotgan holatga ko'ra, aksariyat ishlab chiqaruvchilar distribyutsiyani faqat logistik faoliyat doirasida ko'rib, marketing strategiyasidan mustaqil jarayon sifatida qaramoqda. Bu esa marketing kommunikatsiyasi va iste'molchi bilan bog'liqlik darajasining sustligiga olib kelmoqda [2], [3], [16].

Ko'plab korxonalarda taqsimot tizimi klassik vositachilik modeliga tayangan: ishlab chiqaruvchidan distribyutorlar orqali chakana savdoga va so'ngra iste'molchiga. Ushbu modelda chakana savdo bilan aloqalar bevosita emas, balki oraliq bo'g'inlar orqali yuzaga keladi. Natijada, marketing strategiyasining asosiy unsurlari – narx siyosati, promosiya faoliyati va brend imiji – ishlab chiqaruvchi nazoratidan chiqib ketadi. Bu esa raqobatga barqaror javob berishda muammolarni yuzaga keltiradi [4], [6].


Ichki imkoniyatlar va tashqi tahdidlarni baholash maqsadida SWOT tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari kompaniyaning zamonaviy marketing muhitida raqobatga qanday javob qaytara olishini aniqlashga yordam berdi.

1-jadval. Maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchining SWOT tahlili.

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
Mustahkam ishlab chiqarish	Marketing byudjeti cheklangan
Brend tan olinishi	Raqamli savdo tajribasi yetarli emas
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Onlayn savdo tarmoqlarini kengaytirish	Narxlar ustida vositachilar bosimi
Ekologik mahsulotlarga talab ortishi	Logistikani raqobatchilar orqali toraytirish

SWOT tahlili ko'rsatadiki, kompaniyalar o'zlarining mavjud kuchli tomonlarini yetarli darajada raqamli marketing bilan bog'lay olmagan. Kuchli ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishiga qaramasdan, ular bu salohiyatni marketingga yo'naltira olmayapti. Raqamli savdo platformalarining rivojlanishi, ayniqsa pandemiya davridan so'ng, iste'molchi xatti-harakatlarining o'zgarishiga olib keldi. Shu sababli, ushbu imkoniyatdan foydalanish – nafaqat tijoriy, balki strategik ustunlikdir [19], [20].

Tadqiqotda B2B marketingdagi raqobat kuchlari Porterning Besh kuch modeli orqali baholandi. Ushbu yondashuv ishlab chiqaruvchi va chakana savdo tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi.



1-rasm. Porterning Besh Kuch Modeli – Maishiy Kimyo B2B Bozorida.



Grafik tahlilga asoslangan holda quyidagi xulosalar aniqlandi:

Ichki raqobat yuqori darajada bo'lib, kompaniyalar o'z mahsulotlarini narx raqobati orqali sotmoqda, bu esa barqarorlikka salbiy ta'sir qiladi.

Almashuvchi mahsulotlar bosimi intensiv, chunki maishiy kimyo bozori ko'plab o'xshash funksiyaga ega tovarlarga boy.

Mijozlar bosimi sezilarli, ayniqsa katta hajmli chakana tarmoqlar bilan muzokarlarda narx pasaytirishga bo'lgan bosim ortmoqda.

Yangi kiruvchilar uchun to'siqlar nisbatan past, bu esa bozorga yangilarning kirib kelishini osonlashtiradi va raqobatni kuchaytiradi.

Porter modeli bo'yicha aniqlangan har bir omil, korxona marketing strategiyasini moslashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ayniqsa, brend sodiqligini oshirish va raqamli platformalar orqali bevosita muloqotni yo'lga qo'yish raqobatga bardoshli strategiyalar sirasiga kiradi [4], [5].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, chakana savdo tarmoqlari bilan hamkorlik ko'plab kompaniyalarda faqat logistika va sotuvga yo'naltirilgan. Holbuki, samarali B2B marketing strategiyasi chakana tarmoqlar bilan marketing hamkorligini nazarda tutadi. Galp, Planmeca va Amazon misollarida hamkorlik kontent marketing, promosiya rejalari, sodiqlik dasturlari va mijoz bazasi analitikasi darajasida olib borilmoqda [12], [13], [14], [21].

Bu esa brendni pozitsiyalashda strategik moslik va operatsion uyg'unlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Soddaroq aytganda, ishlab chiqaruvchi va chakana savdo tarmog'i yagona kommunikatsion va distribyutsiya tuzilmasi sifatida ishlamoqda.

Omnichannel marketing yondashuvi orqali chakana savdo bilan integratsiyalashgan savdo tizimi yaratiladi. Krhač Andrašec [10] tomonidan ilgari surilgan raqamli savdo kanalining coating sanoatida joriy etilishi B2B modelining transformatsiyasi uchun namunadir. Bu modelda xaridor harakatlari, inventar boshqaruvi va mijoz sodiqligi real vaqtda monitoring qilinadi.

Li, Dai va Kauffman [9], [18] tomonidan ishlab chiqilgan raqamli konvergentsiya modeli esa kompaniyalar uchun omnichannel infrastrukturani raqamli ma'lumotlar oqimi orqali integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Bunday platformalar, ayniqsa CRM, ERP va mobil ilovalar orqali taqsimotni boshqarishda katta samara beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, maishiy kimyo mahsulotlari sektorida B2B taqsimot tizimi samaradorligini oshirish, raqobat muhitida barqaror o'sishni ta'minlash va chakana savdo tarmoqlari bilan hamkorlikni mustahkamlash uchun mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zarur. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar – taqsimotning faqat logistik faoliyatga qaratilganligi, marketing strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lmaganligi va omnichannel imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani – tizimda takomillashtirishni talab qilmoqda.

Raqamli platformalarning taqsimot tizimiga joriy etilishi, mijoz ma'lumotlariga asoslangan boshqaruv, va chakana savdo tarmoqlari bilan sinxronlashtirilgan kompaniyalar orqali marketing samaradorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, CRM va ERP kabi tizimlar orqali ichki va tashqi axborot oqimini birlashtirish strategik qarorlarni tez va ishonchli qabul qilishga yordam beradi.

Hamkorlikni faqat mahsulot yetkazish bilan cheklab qo'yish, brend qadriyatlarini iste'molchigacha to'liq yetkazishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, chakana savdo tarmoqlari bilan marketing darajasida hamkorlik qilish, sodiqlik dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va promo-strategiyalarni moslashtirish o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Ta'minot zanjirini soddalashtirish, vositachilar sonini kamaytirish, brendni pozitsiyalashda differensial yondashuvlarni ishlab chiqish orqali narx ustunligiga bog'liq bo'lmagan, uzoq muddatli o'sishga xizmat qiluvchi strategiyalar shakllanishi mumkin.

Bundan tashqari, maqsadli segmentlarga moslashtirilgan omnichannel strategiyalar orqali kompaniyalar bir vaqtning o'zida onlayn va oflayn kanallarda mijozga yagona, izchil tajriba taqdim etishi mumkin. Bunday tizim – nafaqat xaridor sodiqligini oshiradi, balki ishlab chiqaruvchiga o'z marketing faoliyatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini ham beradi.

Yuqoridagi yo'nalishlarni hayotga tatbiq qilish orqali B2B taqsimot modelining nafaqat iqtisodiy samaradorligi, balki brendga nisbatan bozor ishonchiligi va muloqot sifati ham oshadi. Shu tarzda shakllantirilgan yondashuv korxonalarni ichki salohiyatidan to'laqonli foydalanishga olib keladi va ularni marketingda ustun pozitsiyaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing (7th ed.). Pearson Education.
2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th Global Ed.). Pearson Education.



3. Palmatier, R. W., Sivadas, E., Grewal, D., & Pingali, S. (2020). *Marketing Channel Strategy: An Omni-Channel Approach*. Routledge.
4. Verhoef, P. C., Kannan, P. K., & Inman, J. J. (2015). From multi-channel retailing to omni-channel retailing. *Journal of Retailing*, 91(2), 174–181. <https://doi.org/10.1016/j.jretai.2015.02.005>
5. Yrjola, M., Spence, M. T., & Saarijärvi, H. (2018). Omni-channel retailing: propositions, examples and solutions. *The International Review of Retail, Distribution and Consumer Research*, 28(3), 259–276. <https://doi.org/10.1080/09593969.2018.1445657>
6. Ailawadi, K. L., & Farris, P. W. (2020). Getting multi-channel distribution right. *Harvard Business Review*. <https://hbr.org>
7. Syhyda, L., Saher, L., & Olefirenko, O. (2022). *Marketing Distribution Policy*. Sumy State University.
8. Tamilia, R. D. (n.d.). History of channels of distribution and their evolution in marketing thought. UQAM, School of Business. <https://doi.org/10.2139/ssrn.987845>
9. Li, Q., Luo, H., Xie, P. X., Feng, X. Q., & Du, R. Y. (2015). Product whole life-cycle and omni-channels data convergence oriented enterprise networks integration. *Computers in Industry*, 70, 23–45. <https://doi.org/10.1016/j.compind.2015.01.011>
10. Krhač Andrašec, E., Urh, B., Senegačnik, M., & Kern, T. (2021). Implementation of the digital sales channel in the coatings industry. *Processes*, 9(1168). <https://doi.org/10.3390/pr9071168>
11. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. *Business Horizons*, 53(1), 59–68. <https://doi.org/10.1016/j.bushor.2009.09.003>
12. Cruz, M. M. C. C. (2022). Galp's B2C Omnichannel Strategy: Extracting Value from the Market by Testing Omnichannel Initiatives [Master's thesis, Nova School of Business and Economics].
13. Budiwan, A. P. (2022). Omnichannel communication platform design for Thai B2B construction glass and accessory e-commerce [Master's thesis, Thammasat University].
14. Morell Batlle, L. M. (2021). Supply chain in B2C and B2B online channels [Master's thesis, Universitat Politècnica de Catalunya].
15. Blythe, J., & Martin, J. (2019). *Essentials of Marketing* (6th ed.). Pearson Education.
16. Hutt, M. D., & Speh, T. W. (2010). *Business Marketing Management: B2B* (10th ed.). Cengage Learning.
17. Sheth, J. N., & Sinha, M. (2015). B2B branding in emerging markets: A sustainability perspective. *Industrial Marketing Management*, 51, 79–88. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2015.06.002>
18. Dai, Q., & Kauffman, R. J. (2001). Business models for Internet-based e-procurement systems and B2B electronic markets. *Proceedings of the 34th Hawaii International Conference on System Sciences*. <https://doi.org/10.1109/HICSS.2001.927048>
19. Rudawska, E. (2019). Sustainable marketing strategy in food and drink industry: A comparative analysis of B2B and B2C SMEs operating in Europe. *Journal of Business & Industrial Marketing*. <https://doi.org/10.1108/JBIM-05-2018-0171>
20. Mariadoss, B. J., Tansuhaj, P. S., & Mouri, N. (2011). Marketing capabilities and innovation-based strategies for environmental sustainability: An exploratory investigation of B2B firms. *Industrial Marketing Management*, 40(8), 1305–1318. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2011.10.006>
21. Farnalskiy, D. (2013). B2B Guide to Ukraine: A Study on Sales and Distribution Strategy [Master's thesis, Lahti University of Applied Sciences].
22. Tien, N. H., Anh, D. B. H., & Thuc, T. D. (2020). *Global Supply Chain and Logistics Management*. Academic Publications.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>